



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-APREL



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-aprel** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 776,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**117,1 %**) o'sish sur'ati **110,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati ¹⁾	5 776,9	100,0	110,6
Olot	192,9	3,3	107,5
Buxoro	299,5	5,2	107,6
Vobkent	384,9	6,7	94,2
G'ijduvon	732,7	12,7	108,7
Kogon	197,1	3,4	120,7
Qorako'l	241,8	4,2	108,8
Qorovulbozor	94,1	1,6	111,0
Peshku	296,0	5,1	124,5
Romitan	313,8	5,4	110,9
Jondor	306,4	5,3	109,7
Shofirkon	250,1	4,3	109,0
Buxoro sh.	2 255,9	39,1	112,6
Kogon sh.	211,7	3,7	117,6

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 869,5** ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,8** % ni tashkil etdi.



2022- y.

2023- y.

▶ Hajmi, ming so'mda —●— O'sish sur'ati, % da


Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 869,5	108,8
Olot	1 872,9	105,9
Buxoro	1 709,3	106,0
Vobkent	2 634,3	92,7
G'ijduvon	2 306,3	106,8
Kogon	2 380,8	118,5
Qorako'l	1 423,3	107,3
Qorovulbozor	4 802,3	108,2
Peshku	2 293,0	122,4
Romitan	2 103,0	109,0
Jondor	1 678,7	107,9
Shofirkon	1 355,5	107,5
Buxoro sh.	7 784,6	110,5
Kogon sh.	3 317,7	115,2

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2022-2023- yillar yanvar-aprel)



2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **523,6** mlrd. soʻmga oshib, **3 462,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



▶ **Hajmi, ming soʻmda** **Oʻsish surʻati, % da**

Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **59,9 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **17,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror oʻsishiga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-aprel, mlrd. soʻmda)

Buxoro viloyati – 3 462,8

Buxoro sh. – 853,9	Shofirkon – 194,8
Gʻijduvon – 589,0	Qorakoʻl – 188,4
Jondor – 240,1	Olot – 167,6
Buxoro – 239,7	Kogon sh. – 144,7
Romitan – 225,9	Kogon – 142,9
Peshku – 211,0	Qorovulbozor – 56,4
Vobkent – 208,4	


Xizmatlar sohasida band boʻlgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **24,7** foiz yoki **853,9** mlrd. soʻm Buxoro shahriga toʻgʻri keldi.



	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	5 776,9	100,0	110,6
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	239,4	4,1	122,2
Moliyaviy xizmatlar	1 299,3	22,5	132,2
Transport xizmatlari	1 187,2	20,6	105,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 076,1	18,6	106,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	225,0	3,9	103,5
Savdo xizmatlari	1 767,3	30,6	104,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	114,5	2,0	102,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	272,9	4,7	110,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	95,8	1,7	103,1
Ijara xizmatlari	122,8	2,1	97,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	116,9	2,0	99,9
Shaxsiy xizmatlar	131,8	2,3	103,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	43,2	0,7	105,5
Boshqa xizmatlar	160,8	2,8	104,2

Moliyaviy xizmatlar

(2022-2023- yillar yanvar-aprel)



2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **413,7** mlrd. soʻmga oshib, **1 299,3** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,5** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **132,2** % ni tashkil etdi.


— Hajmi, mlrd. soʻmda —●— Oʻsish surʻati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **91,3** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **53,7** foizni yoki **855,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Buxoro shahrida oʻsish surʻati **131,1** % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **1 187,2** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati **105,3 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,6 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga koʻra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʻliq boʻlib, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 256** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **7,6 %** ini tashkil etdi. Ulardan **2 245** birlik (**99,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **37,9** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **271,2** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **102,3 %** ni tashkil etdi.

Gʻijduvon tumanida ushbu koʻrsatkich **208,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **105,2 %** ni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-aprel)

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida savdo xizmatlari hajmi **268,2** mlrd. so'mga oshib, **1 767,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **104,7** % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- may holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **28,7** % yoki **8 530** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7** % (**8 504** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **70,7 %** ni tashkil etdi.




Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari

Shahar va tumanlar kesimida	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 767,3	104,7
Olot	75,1	103,5
Buxoro	111,1	106,1
Vobkent	207,4	79,4
G'ijduvon	262,1	105,1
Kogon	97,0	137,2
Qorako'l	85,9	103,9
Qorovulbozor	35,5	106,8
Peshku	138,5	144,6
Romitan	98,8	107,0
Jondor	107,3	102,9
Shofirkon	94,6	105,9
Buxoro sh.	392,4	105,4
Kogon sh.	61,6	103,6

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-aprel)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **239,4** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,2** % ni tashkil etdi.





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **333** birlikka yetdi, shundan **315** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)





— Hajmi, mlrd. so'mda

— O'sish sur'ati, % da



2023- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **272,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,0** % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **63,0** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

2023- yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **95,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- may holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **788** birlikni tashkil etdi, shundan **708** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Buxoro vil.	95,8	Romitan	3,0
Buxoro sh.	46,9	Shofirkon	2,9
G'ijduvon	10,0	Vobkent	2,8
Buxoro	7,8	Olot	2,5
Qorako'l	5,1	Kogon	2,4
Kogon sh.	4,4	Qorovulbozor	0,6
Peshku	4,1		
Jondor	3,3		

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **42,0** mlrd. so'mga oshib, **225,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 111** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 104** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-aprel)





2023- yilning yanvar-aprel oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **114,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,0** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,9** % ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

Buxoro viloyati ¹⁾		(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)	
Buxoro sh.	37,5	Olot	5,2
G'ijduvon	16,9	Kogon sh.	5,2
Jondor	8,5	Shofirkon	4,7
Vobkent	7,3	Kogon	4,6
Qorako'l	6,9	Romitan	4,3
Buxoro	6,5	Qorovulbozor	1,0
Romitan	5,9		

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **43,2** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **0,7** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,5** % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

Buxoro vil. – 43,2		(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)	
Buxoro sh. – 34,9	Kogon – 0,4		
Jondor – 3,9	Qorako'l – 0,3		
G'ijduvon – 1,0	Qorovulbozor – 0,3		
Buxoro – 0,7	Romitan – 0,2		
Shofirkon – 0,6	Kogon sh. – 0,2		
Peshku – 0,5	Vobkent – 0,2		

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2022-2023-yillar yanvar-aprel)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **116,9** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,9** % ni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sish sur'ati, % da

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-aprel)

2022- yilning yanvar-apreliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **8,2 mlrd. so'mga** oshib, **122,8 mlrd. so'mga** yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

